



## PEDAGOGIK TARJIMASHUNOSLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.

*G'aybullayeva Shahzoda Sur'at qizi*

*Filologiya fakulteti 301-N guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: Jumayeva Gulxan Amrullayevna*

*Nizomiy nomidagi O'zMPU,*

*Filologiya fakulteti, dotsenti v.b.*

### **Annotatsiya**

Maqolada pedagogik tarjimashunoslikning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. Tarjimon kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy modellari hamda nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslangan didaktik yondashuv tahlil qilingan. O'zbek va xorijiy tarjimashunoslik tajribasi qiyoslanib, milliy sharoit uchun istiqbolli pedagogik echimlar taklif etilgan.

### **Kalit so'zlar**

pedagogik tarjimashunoslik, tarjima kompetensiyasi, didaktika, nazariya va amaliyot, tarjimonni tayyorlash, refleksivlik, kompetensiyaga asoslangan yondashuv.

### **Аннотация**

В статье рассматриваются теоретические основы и практическое применение педагогического переводоведения. Проанализированы современные модели формирования переводческой компетенции и дидактический подход, основанный на единстве теории и практики. Сопоставлены отечественный и зарубежный опыт переводоведения, предложены перспективные педагогические решения для национальных условий.



### **Ключевые слова**

педагогическое переводоведение, переводческая компетенция, дидактика, теория и практика, подготовка переводчиков, рефлексивность, компетентностный подход.

### **Annotation**

The article examines the theoretical foundations and practical application of pedagogical translation studies. Modern models of forming translator competence and the didactic approach based on the unity of theory and practice are analysed. The Uzbek and foreign experience of translation studies is compared, and promising pedagogical solutions for the national context are proposed.

### **Keywords**

pedagogical translation studies, translation competence, didactics, theory and practice, translator training, reflexivity, competence-based approach.

### **Kirish**

Globalashuv jarayonlari va madaniyatlararo muloqotning misli ko'rilmagan darajada kengayishi tarjima faoliyatiga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirib, malakali tarjimonlarni tayyorlash masalasini xalqaro miqyosdagi ustuvor ilmiy-pedagogik vazifa darajasiga ko'tardi. Tarjima nazariyasi va amaliyotining chorrahasida shakllangan yangi tadqiqot sohasi — pedagogik tarjimashunoslik tarjima kompetensiyasini shakllantirish, rivojlantirish va baholash uchun zarur bo'lgan didaktik tamoyillarni, metodlarni va vositalarni ishlab chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

XX asrning ikkinchi yarmida tarjimashunoslik (Translation Studies) mustaqil fan sifatida shakllangach, undan ajralib chiqqan tarjima didaktikasi (Translation Didactics) tarjimon ta'limi muammolarini tadqiq qiluvchi alohida intizom darajasiga



ko'tarildi. Jeyms Holms tomonidan taklif etilgan tarjimashunoslikning mashhur sxemasiga binoan, amaliy tarjimashunoslikning uchta asosiy tarmog'i — tarjima yordamchi vositalari, tarjima tanqidi va tarjima ta'limi mavjud bo'lib, oxirgisi pedagogik tarjimashunoslikning predmetini tashkil etadi. Mazkur soha o'tgan yarim asr mobaynida mustaqil metodologiyaga, kategoriyalar apparatiga va xalqaro miqyosdagi ilmiy maktablarga ega bo'lgan yetuk fan tarmog'iga aylandi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida tarjima maktablarining rivojlanishi, jahon adabiyoti namunalarini ona tilimizga o'girish, davlat tilining xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamlash bilan bog'liq vazifalar tarjimonlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti va boshqa oliy ta'lim muassasalarida tarjimashunoslik yo'nalishlari faoliyat yuritmoqda, magistratura va doktorantura bosqichlari orqali yuqori malakali kadrlar yetishtirilmoqda. Shu bilan birga, tarjimon ta'limining nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini chuqurroq tahlil qilish, milliy sharoitga moslashtirilgan pedagogik modelni ishlab chiqish zaruriyati saqlanib qolmoqda.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: birinchidan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalarining tarjima jarayoniga keng joriy etilishi tarjimon kompetensiyasi tarkibini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda; ikkinchidan, ko'p tilli muloqot sharoitida funksional va kommunikativ jihatdan adekvat tarjimaga bo'lgan talab kuchaymoqda; uchinchidan, an'anaviy 'matnni o'qing va tarjima qiling' yondashuvi zamonaviy talablarga javob bermay qolgani uchun yangi didaktik modellar zarur.

Maqolaning maqsadi pedagogik tarjimashunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini sintez qilish, tarjimon kompetensiyasini shakllantirishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlovchi metodologik asoslarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: pedagogik tarjimashunoslikning



konseptual asoslarini ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish; xorijiy va mahalliy olimlarning tarjima ta'limiga doir ilmiy qarashlarini sistemali ravishda umumlashtirish; nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning integratsiyalashuv mexanizmlarini aniqlash; samarali pedagogik modelning tarkibiy elementlarini taklif qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi pedagogik tarjimashunoslikni nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilish, hamda tarjimon tayyorlash jarayonida nazariya va amaliyot integratsiyasining zamonaviy modelini taklif etishda namoyon bo'ladi. Olingan natijalar oliy ta'lim muassasalaridagi tarjimashunoslik dasturlarini takomillashtirish, ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning yangi yo'nalishlarini ochish hamda magistratura va doktorantura bosqichidagi tadqiqotchilar uchun nazariy-metodologik manba sifatida amaliy ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar tahlili**

Pedagogik tarjimashunoslikning shakllanishi va rivojlanishi turli ilmiy maktablar vakillarining tadqiqotlari bilan uzviy bog'liq. G'arb tarjimashunosligida funksional va kommunikativ yondashuvlar asosida tarjima ta'limining nazariy fundamenti yaratildi. Yujen Naydaning dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi tarjima ta'limining mazmun va metodlarini qayta ko'rib chiqishga turtki bo'ldi. Katarina Reys va Hans Vermir tomonidan ishlab chiqilgan skopos-nazariya tarjima jarayonini maqsadga yo'naltirilgan faoliyat sifatida qarab, didaktik amaliyotda matn turlari va kommunikativ vaziyatlarni inobatga olishni talab qildi. Ushbu yondashuvni rivojlantirgan Kristian Nord pedagogik tarjimashunoslikda tarjimon mas'uliyati, manba matn tahlili va funksional adekvatlik tushunchalarini markaziy o'ringa qo'yib,



tarjima ta'limini matn tahlili bosqichlari orqali tashkil etishning yaxlit modelini taqdim etdi<sup>1</sup>.

Konstruktivistik yondashuv tarjimon ta'limida tub o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Donald Kiralining "Tarjimonni o'qitishga ijtimoiy konstruktivistik yondashuv" asari bu yo'nalishning ilmiy manifesti hisoblanadi. Olim transmissiyaviy (axborotni passiv uzatishga asoslangan) modeldan voz kechib, talabani bilim qurish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiruvchi loyiha asosidagi (project-based) ta'limni asoslab berdi. Uning fikricha, tarjima sinflari real mijozlar, real loyihalar va real natijalar bilan ishlaydigan "haqiqiy" kasbiy muhitga aylanishi shart<sup>2</sup>. Kiraly nazariyasi keyinchalik Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan magistratura standartlari (European Master's in Translation — EMT) tarkibida tizimli aks ettirilib, kompetensiya yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining shakllanishiga asos bo'ldi.

Tarjima kompetensiyasi muammosini empirik tadqiq qilishda PACTE (Process of Acquisition of Translation Competence and Evaluation) ilmiy guruhining ishlari alohida o'rin tutadi. Amparo Hurtado Albir rahbarligidagi mazkur tadqiqot guruhi Barselona avtonom universitetida olib borgan ko'p yillik longitudinal tadqiqotlari natijasida tarjima kompetensiyasining besh asosiy sub-kompetensiya — bilingual, ekstralingvistik, instrumental, strategik va tarjima haqidagi bilim — hamda psixo-fiziologik komponentdan tashkil topishini empirik tarzda isbotladi. Bu model bugungi kunda dunyoning ko'plab universitetlari uchun tarjimon tayyorlashning xalqaro standartiga aylangan.

Slavyan tarjimashunosligida V.N. Komissarov, A.V. Fyodorov, L.K. Latyshev, I.S. Alekseeva singari olimlar tarjima nazariyasi va metodikasiga oid

---

<sup>1</sup> Nord C. *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. – Manchester: St. Jerome Publishing, 1997. – P. 27–38.

<sup>2</sup> Kiraly D. *A Social Constructivist Approach to Translator Education: Empowerment from Theory to Practice*. – Manchester: St. Jerome Publishing, 2000. – P. 17–25.



fundamental asarlar yaratdilar. V.N. Komissarov pedagogik tarjimashunoslikning intizomlararo xususiyatini ta'kidlab, uning tilshunoslik, psixolingvistika, pedagogika va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib bergan<sup>3</sup>. L.K. Latyshov va V.I. Provotorov til oliygohlarida tarjimonni tayyorlashning tarkibiy mazmunini ishlab chiqib, "tarjimon kompetensiyasi" tushunchasini operatsional darajada izohlaganlar. I.S. Alekseeva esa tarjimon ta'limining bosqichli modelini taqdim etib, ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qilgan.

O'zbek tarjimashunosligida G'aybulla Salomov tomonidan asos solingan ilmiy maktab pedagogik tarjimashunoslikning milliy poydevorini tashkil etadi. Olim "Tarjima nazariyasi asoslari" asarida nazariy bilim, til kompetensiyasi va amaliy mahoratning uzviy bog'liqligini ta'kidlab, tarjimonni tayyorlashda ushbu uch komponentning hamisha birgalikda rivojlantirilishi zarurligini asoslagan. Najmiddin Komilov badiiy tarjima san'atining estetik, lingvomadaniy va falsafiy jihatlarini chuqur tahlil qilib, tarjimonni tayyorlashda adabiy did, manba til va o'gilayotgan til madaniyatining bir xil darajada egallanishi shart ekanligini ilmiy jihatdan asoslagan<sup>4</sup>. Q. Musayev tarjima nazariyasi asoslarini sistematik ravishda yoritib, leksik, grammatik va stilistik transformatsiyalarning pedagogik tasnifini taqdim etgan. Sh. Sirojiddinov va G. Odilova badiiy tarjima didaktikasining zamonaviy muammolarini ko'tarib, mahalliy tarjima maktabining metodologik asoslarini boyitganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik tarjimashunoslik bo'yicha ko'plab fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, nazariya va amaliyot uyg'unligini yaxlit ta'minlovchi pedagogik modelni shakllantirish, tarjimon ta'limining milliy sharoitga moslashtirilgan didaktik tizimini ishlab chiqish, raqamli

<sup>3</sup> Komissarov V.N. Sovremennoye perevodovedeniye. – Moskva: ETS, 2002. – S. 326–335.

<sup>4</sup> Komilov N. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B. 45–58.



davrda tarjimon kompetensiyasini qayta tushunish kabi muammolar hanuz o'z to'liq yechimini topgan emas. Aynan shu muammolar maqolamiz tadqiqotining nazariy-metodologik fonini belgilaydi.

### **Metodologiya**

Tadqiqotning metodologik asosi pedagogik tarjimashunoslikning intizomlararo xususiyatini hisobga olgan holda majmuaviy yondashuvga tayanadi. Tadqiqot doirasida nazariy va empirik metodlar uyg'unlikda qo'llanildi. Nazariy metodlar guruhiga ilmiy adabiyotlarni analitik o'rganish, sintez, tasniflash, qiyosiy-tipologik tahlil, modellashtirish, induksiya va deduksiya kiritildi. Empirik metodlar tarkibida tarjima ta'limi jarayonini bevosita kuzatish, talabalarning tarjima ishlarini ekspert baholash, anketa so'rovnomalari, pedagogik tajriba hamda xato tahlili (error analysis) o'rin oldi.

Tadqiqotning metodologik fundamentini bir nechta o'zaro to'ldiruvchi nazariy paradigmlar tashkil etadi. Birinchidan, antropotsentrik yondashuv tarjimonni faqat lingvistik faoliyatning sub'ekti emas, balki shakllanayotgan kasbiy shaxs sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu yondashuv asosida talabning kasbiy o'zlikni anglashi, kognitiv individualligi va motivatsion sohasi pedagogik diqqat markaziga olib chiqiladi. Ikkinchidan, kompetensiyaga asoslangan yondashuv (competence-based approach) tarjima ta'limining maqsadi va natijalarini aniq baholanadigan kompetensiyalar majmuasi sifatida belgilashga yo'naltirilgan. Antoni Pim ta'kidlaganidek, tarjima nazariyalari pedagogik amaliyotda yo'l-yo'riq beruvchi tayyor retsept sifatida emas, balki tarjimonlik tafakkurini shakllantirish quroli, talabaga o'z qarorlarini asoslab berish imkoniyatini taqdim etuvchi konseptual apparat sifatida xizmat qilishi kerak<sup>5</sup>. Uchinchidan, faoliyatga asoslangan yondashuv (activity-based approach) talabani real tarjima vaziyatlariga jalb qilish

---

<sup>5</sup> Pym A. Exploring Translation Theories. – London/New York: Routledge, 2014. – P. 165–172.



orqali bilimning aksiomatik shakldan operatsion shaklga, ya'ni harakat dasturiga o'tishini ta'minlaydi.

Tadqiqot metodikasining muhim qismi sifatida Daniel Gil tomonidan ishlab chiqilgan sa'y-harakatlar modeli (Effort Models) tanlandi. Ushbu model tarjima jarayonidagi kognitiv yuklamalarni — tushunish, ishlab chiqarish, qisqa muddatli xotira va koordinatsiya — alohida-alohida tahlil qilish va ularni maxsus didaktik mashqlar orqali izchil rivojlantirish imkonini beradi. Gilning ta'kidlashicha, tarjimon ta'limining haqiqiy samaradorligi har bir sa'y-harakatni avval mustaqil ravishda mashq qilish va keyinchalik ularni yaxlit faoliyat strukturasi integratsiyalashga asoslanadi<sup>6</sup>. Bu model ham yozma tarjima, ham og'zaki tarjima didaktikasida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelmoqda va dunyoning ko'plab tarjimonlik maktablarining metodologik asosini tashkil etadi.

Empirik bosqichda ishlatilgan metodlar quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etildi. Boshlang'ich diagnostika orqali talabalarning kirish darajasidagi til, ekstralingvistik va instrumental sub-kompetensiyalari o'lchandi. Asosiy bosqichda eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirilib, eksperimental guruhda nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslangan model qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodikadan foydalanildi. Yakuniy bosqichda tarjima sifati ekspert komissiyasi tomonidan ko'p mezonli usul bilan — adekvatlik, ekvivalentlik, stilistik moslik, atamashunoslik to'g'riligi va kommunikativ samaradorlik — baholandi. Najmiddin Komilov ta'kidlaganidek, tarjima san'atida nazariy bilim va amaliy mahorat hamisha ichki uyg'unlikda bo'lishi shart, aks holda tarjima jonsiz harflar yig'indisiga aylanib qoladi<sup>7</sup>.

Tarjima mahsulotini baholashning sifat-miqdoriy mezonlari sifatida xato tahlili (error analysis) usuli qo'llanildi. L.K. Latyshev tasnifiga muvofiq, tarjima

<sup>6</sup> Gile D. Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 2009. – P. 157–168.

<sup>7</sup> Komilov N. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B. 78–85.



xatolari to'rt asosiy guruhga — denotativ (mazmun darajasidagi), signifikativ (tushuncha-mantiqiy), stilistik va normativ-foydalanish xatolari — bo'lib o'rganildi. Har bir xato turining chastotasi statistik tahlil qilinib, ularning ortidagi pedagogik sabablar aniqlandi<sup>8</sup>. Mazkur yondashuv o'qituvchiga talabning kuchli va zaif tomonlarini aniq aniqlash va o'qitish strategiyasini individuallashtirish imkonini berdi. Olingan ma'lumotlar SPSS statistik paketida qayta ishlanib, t-mezon va Manna–Uitni mezonlari yordamida ikki guruh natijalari o'rtasidagi tafovutning statistik ahamiyatliligi aniqlandi.

Tadqiqot ishonchligini ta'minlash uchun bir necha metodologik tamoyillarga qat'iy rioya qilindi: tanlama vakilliligi tamoyili (turli kurslar va darajadagi talabalarni qamrab olish, jami 84 talaba); triangulyatsiya tamoyili (turli manbalar — talabalar, o'qituvchilar va tashqi ekspertlar — dan olingan ma'lumotlarni o'zaro tekshirish); pedagogik tajribaning ikki bosqichda takrorlanishi orqali natijalar barqarorligini ta'minlash; ekspertlar mustaqilligi tamoyili (har bir tarjima ishi kamida uch mustaqil ekspert tomonidan baholandi, baholash subyektivligi darajasi minimallashtirildi).

### **Natija va xulosa**

Olib borilgan tadqiqot natijalari pedagogik tarjimashunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirishning bir qator istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Birinchi navbatda shuni qayd etish lozimki, tarjimon ta'limining samaradorligi nazariy bilimlarning amaliy faoliyat strukturasi organik tarzda kirib borishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Eksperimental guruhda nazariya mashg'ulotlari tarjima ustaxonasi (translation workshop) formatidagi amaliy darslar bilan integratsiyali tarzda tashkil etilganda, talabalarning leksik, grammatik va

---

<sup>8</sup> Latyishev L.K., Provotorov V.I. *Struktura i soderzhaniye podgotovki perevodchikov v yazykovom vuze.* – Moskva: NVI-Tezaurus, 2001. – S. 89–97.



stilistik transformatsiyalarni o'rinli qo'llashdagi mahorati nazorat guruhga nisbatan 31,7 foizga yuqori ko'rsatkichlarni qayd etdi. Bu farq statistik jihatdan ham ahamiyatli ( $p < 0,05$ ) ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot davomida pedagogik tarjimashunoslikning samarali modelining tarkibiy elementlari aniqlandi. Bu modelning yadrosini quyidagi pedagogik tamoyillar tashkil etadi: integrativlik (nazariya va amaliyotni alohida bloklar sifatida emas, balki o'zaro bog'langan butunlik tarzida o'rgatish); kontekstuallik (tarjima vazifalarini real kommunikativ vaziyatlar va kasbiy muhitga moslashtirish); aksiologiklik (tarjima qadriyatlari, kasbiy etika va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish); refleksivlik (talabning o'z tarjima qarorlarini ongli ravishda tahlil qilish va asoslash ko'nikmasini rivojlantirish). Piter Nyumark ta'kidlaganidek, malakali tarjimon faqat lingvistik vositalarni emas, balki o'z qarorlari uchun mas'uliyatni ham egallashi va har bir tanlovini asoslab bera olishi shart<sup>9</sup>. Bu fikr pedagogik tarjimashunoslikda refleksiv yondashuvning nazariy asoslarini mustahkamlaydi va talabani kasbiy tafakkurning yuqori darajasiga olib chiqadi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, tarjima kompetensiyasini shakllantirishda PACTE guruhi tomonidan ilmiy asoslangan modelning to'liq qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Bilingual, ekstralingvistik, instrumental va strategik sub-kompetensiyalarni rivojlantirishning maxsus didaktik vositalari aniqlanib, sinovdan o'tkazildi: parallel matnlar bilan ishlash, kasbiy atamalar bankini bosqichma-bosqich shakllantirish, tarjima muammolarini tahlil qilish va echish bo'yicha kompleks topshiriqlar, ko'p qirrali (multi-task) tarjima loyihalari. Hurtado Albir rahbarligidagi tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, strategik sub-kompetensiya boshqa barcha sub-

---

<sup>9</sup> Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – P. 162–170.



kompetensiyalarning ishlashini muvofiqlashtiruvchi markaziy element bo'lib, aynan u tarjimonni "oddiy ikki tilli shaxs"dan kasbiy tarjimon darajasiga ko'taradi<sup>10</sup>.

O'zbekiston sharoitida pedagogik tarjimashunoslikning rivojlanishi milliy madaniyat, til xususiyatlari va ta'lim an'alarini hisobga olgan didaktik konsepsiyani talab qiladi. Q. Musayev tomonidan asoslab berilgan tarjima nazariyasi asoslari va Sh. Sirojiddinovning badiiy tarjima maktabidagi metodologik qarashlar mahalliy didaktik amaliyotning ilmiy fundamenti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Q. Musayev ta'kidlaganidek, tarjima nazariyasini o'rganish hech qachon o'z-o'zicha maqsad bo'lib qolmasligi, u har doim amaliy tarjima qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qilishi shart<sup>11</sup>. Bu yondashuv mahalliy oliy ta'lim muassasalaridagi tarjimashunoslik dasturlarini ishlab chiqishda asosiy mezon bo'lib qolishi lozim.

Pedagogik amaliyot tahliliga ko'ra, tarjimon ta'limidagi an'anaviy "matnni o'qing va tarjima qiling" yondashuvi zamonaviy talablarga javob bermaydi. Janr-tematik moduli yondashuv (genre-based approach) talabani ma'lum bir matn turi — ilmiy, badiiy, huquqiy, tibbiy yoki texnik tarjima — bilan tizimli ishlashga olib keladi. Jan Delil pedagogik tarjimashunoslikda matn tahlili bosqichini alohida ajratib ko'rsatib, talaba avval matnning kommunikativ vazifasini, keyin uning tuzilmaviy xususiyatlarini va nihoyat tilning leksik-stilistik shakllarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishi zarurligini metodologik jihatdan asoslagan<sup>12</sup>. Bu yondashuv didaktik mashqlar tizimini izchillik, davomiylik va murakkablik darajasining bosqichma-bosqich oshirilishi tamoyillariga muvofiq tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot xulosalarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin. Birinchidan, pedagogik tarjimashunoslik amaliy tarjimashunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida

<sup>10</sup> Hurtado Albir A. (ed.) Researching Translation Competence by PACTE Group. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 2017. – P. 35–42.

<sup>11</sup> Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 28–34.

<sup>12</sup> Delisle J. La traduction raisonnée: Manuel d'initiation à la traduction professionnelle de l'anglais vers le français. – Ottawa: Les Presses de l'Université d'Ottawa, 1993. – P. 67–75.



o'ziga xos predmet, metodologiya va kategoriyalar apparatiga ega bo'lib, uning bosh vazifasi tarjima kompetensiyasini ilmiy asoslangan didaktik yo'llar bilan shakllantirishdir. Ikkinchidan, nazariya va amaliyot uyg'unligi pedagogik tarjimashunoslikning fundamental tamoyili hisoblanadi: nazariy bilimsiz amaliy mashq mexanik xarakterga ega bo'lib qoladi, amaliyotsiz nazariy bilim esa abstrakt va hayotdan uzilgan ko'rinishda qoladi. Uchinchidan, samarali pedagogik model integrativlik, kontekstuallik, aksiologiklik va refleksivlik tamoyillariga asoslanib, kompetensiyaga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va konstruktivistik yondashuvlarni o'zida sintez etadi.

To'rtinchidan, O'zbekiston tarjimashunoslik maktabining boy an'analari va xorijiy tajribaning eng samarali namunalarining ilmiy sintezi mahalliy pedagogik tarjimashunoslikning yangi bosqichini boshlash uchun kerakli nazariy va metodologik resurslarni yaratadi. Beshinchidan, kelajak tadqiqotlari sun'iy intellekt va neyron tarjima vositalari davrida tarjimomni tayyorlash, mashina tarjimasini didaktik amaliyotga integratsiyalash, ko'p tilli vakolatlilikni (multilingual competence) shakllantirish, raqamli tarjima muhitida etika va mas'uliyat masalalari kabi yangi yo'nalishlarda davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda nazariya va amaliyot uyg'unligi tamoyili o'z dolzarbligini saqlab qolib, mazmuniy jihatdan yangi sifat darajasiga ko'tariladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 232 b.
2. Komilov N. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 192 b.
3. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.



4. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. – 200 b.
5. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. – 216 b.
6. Komissarov V.N. Sovremennoye perevodovedeniye. – Moskva: ETS, 2002. – 424 s.
7. Latyshhev L.K., Provotorov V.I. Struktura i sodержaniye podgotovki perevodchikov v yazikovom vuze. – Moskva: NVI-Tezaurus, 2001. – 136 s.
8. Alekseyeva I.S. Vvedeniye v perevodovedeniye. – Moskva: Akademiya, 2004. – 352 s.
9. Fyodorov A.V. Osnovy obshchey teorii perevoda. – Moskva: Vysshaya shkola, 1983. – 303 s.
10. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E.J. Brill, 1969. – 218 p.
11. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
12. Kiraly D. A Social Constructivist Approach to Translator Education: Empowerment from Theory to Practice. – Manchester: St. Jerome Publishing, 2000. – 224 p.
13. Nord C. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. – Manchester: St. Jerome Publishing, 1997. – 154 p.
14. Pym A. Exploring Translation Theories. – London / New York: Routledge, 2014. – 192 p.
15. Gile D. Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins, 2009. – 283 p.



16. Hurtado Albir A. (ed.) *Researching Translation Competence* by PACTE Group. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins, 2017. – 401 p.
17. Delisle J. *La traduction raisonnée*. – Ottawa: Les Presses de l'Université d'Ottawa, 1993. – 484 p.
18. Holmes J.S. *Translated! Papers on Literary Translation and Translation Studies*. – Amsterdam: Rodopi, 1988. – 117 p.